



**Ilmiy amaliy  
jurnal  
№ 2 (4)  
2026**

**YANGI  
O'ZBEKISTON  
IQTISODIYOTI**

**“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali 2-son 2026 yil***

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI  
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI**

**2**

**ISBN 978-9943-5256-3-4**

**Toshkent – 2026**

MUNDARIJA

<b>Аслонов С.М., Амиджанова М.М.</b> Развитие бизнес-идей (стартапов) предпринимательской деятельности в Республике Таджикистан.....	7
<b>Умаров И.Ю.</b> Современные тенденции инновационного развития пищевой промышленности Узбекистана.....	13
<b>Akbaraliyeva D., Mirzamahmudova M.</b> Bank tizimi tarixi va rivojlanishi.....	16
<b>Mamajonova N.A.</b> Qurilish korxonalarida innovatsion boshqaruv faoliyati samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari arxitekturasi.....	22
<b>Ahmadkulov D.R., Xamrayev O.Y., Khattobov U.B.</b> Kriptovalyutaga soliq solishda jahon tajirabasi va muammolar.....	25
<b>Toshpulatov A.M.</b> Qurilish materiallari sanoati korxonalarining ishlab chiqarish hajmini baholash usullari.....	30
<b>Bahromov Sh.F.</b> Jahonda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning (TXXI) iqtisodiy rivojlanish bilan bog‘liqligini tahlili.....	34
<b>Kalmuratov B., Izzetov B., Yusupova J., Shamuratova A.</b> Calculation in econometric models of human capital financing in innovation management in Uzbekistan.....	39
<b>Sultonov B.M.</b> Oilaviy korxonalar faoliyatini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmiga ta‘sir etuvchi omillar va ularni baholash asoslari.....	43
<b>Юсупов М.Х.</b> Фарғона вилояти маҳаллаларида ижтимоий омилларнинг иқтисодий барқарорликка таъсири: демография, гендер ва миграция таҳлили.....	47
<b>Жаббаров К.Й., Жалолов И.Х., Эркинов М.Д.</b> Молиявий ҳисобот тизимининг моҳияти ва шаклланиш бошқичлари.....	57
<b>Гулямова Н.Х.</b> Саноат корхоналарини инновацион ривожланиши ва миллий иқтисодиёт ўсиши.....	61
<b>Arziboyeva R.S.</b> Banklarda asosiy vositalar va mablag‘lar hisobini takomillashtirish.....	64
<b>To‘raboyev Q.Q.</b> Raqamli iqtisodiyot sharoitida mamlakatimizda soliq tizimini modernizatsiya qilish va sun‘iy intellekt hamda Big Data yordamida nazorat.....	67
<b>Tojiboyev I.I.</b> Raqamli biznes va elektron tijoratni soliqqa tortishning dolzarb masalalari va yechimlari.....	70
<b>Xolmirzayev I.O.</b> Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyatining rivojlantirishning iqtisodiy yo‘llari.....	74
<b>Saidova M.J.</b> Sanoat tarmoqlari transformatsiyasi sharoitida texnologik eskirish va modernizatsiya muammolari.....	79
<b>Usmonova N.A.</b> Andijon viloyatida kichik korxonalar faoliyat samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillarni statistik va ekonometrik tahlil qilish.....	83
<b>Xaydarov M.T., Jannazarova G.K.</b> Bozor infrastrukturasi va uning rivojlanish istiqbollari.....	87
<b>Худайназарова Д.Г.</b> Фармацевтика корхоналарида харажатларга доир ахборотларни бухгалтерия ҳисоботларида очиб бериш тартибини такомиллаштириш.....	93
<b>Madaminov A.M.</b> O‘zbekistonda sanoat tarmoqlari faoliyatida oziq-ovqat sanoati rivojlantirish istiqbollari.....	99
<b>Zufarova G.A.</b> Kambag‘al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish masalalari.....	103
<b>Ergashev I.I.</b> Kichik korxonalar investitsiyaviy jozibadorligini samarali boshqarishda jahon amaliyoti tajribasi.....	106
<b>Sativaldiyeva G.X.</b> Ijara munosabatlarini mohiyati, ahamiyati va tasniflanishi.....	110
<b>Kamilova A.N.</b> Sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirishda mehnatni normalashtirish tizimining o‘rni va ahamiyati.....	115
<b>Базарова Г.Г.</b> Занятость населения в Узбекистане – теоретико-методологические основы анализа и практические механизмы решения проблем.....	119
<b>Turabov B.T.</b> Byudjet taqchilligi va xalqaro moliyaviy oqimlarning ta‘siri.....	125
<b>Xamzaev A.N.</b> Mamlakatimizda kapital bozorini rivojlantirish yo‘llari.....	131
<b>Xamzaev A.N., Mirzajonov M.</b> Mamlakatimizdagi xususiy korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish yo‘llari.....	136

<b>Raximova L.Sh.</b> Innovatsion iqtisodiyot sharoitida ayollar tadbirkorligining roli va uning turmush farovonligiga ta'siri.....	<b>141</b>
<b>Nosirov S.N.</b> ESG tamoyillarini joriy etish orqali sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini oshirish mexanizmlari.....	<b>146</b>
<b>Maxkamov X.M.</b> Tijorat banklarida muammoli kreditlar ulushini kamaytirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....	<b>150</b>
<b>Hamrakulova M.F.</b> Sanoat korxonalarida innovatsion boshqaruv mexanizmlarining mahsulot sifati va bozor raqobatbardoshligiga ta'siri.....	<b>153</b>
<b>Mirzayeva L.S.</b> O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozoridagi aksiyalar likvidligini oshirish yo'llari.....	<b>157</b>
<b>Очилов Ж.Ж.</b> Инновацион ривожланишда кичик бизнес фаолияти экотизимининг роли..	<b>160</b>
<b>Usubjonov Z.V.</b> Qurilish materiallari bozori mohiyati va uning xususiyatlari.....	<b>165</b>
<b>Bekmurodov N.X.</b> Hududiy iqtisodiy rivojlanishning nazariy asoslari va konsepsiyalari.....	<b>170</b>
<b>Yusupova M.B.</b> Zamonaviy boshqaruv tizimi va strategik boshqaruv hisobi.....	<b>175</b>
<b>Xudayberdiyev O.A.</b> Globallashuv sharoitida elektron tijorat orqali tadbirkorlik subyektlarining xalqaro savdo munosabatlarini rivojlantirish mexanizmlari.....	<b>179</b>
<b>Bo'stonova N.A.</b> Andijon viloyatida kichik biznes subyektlarining salohiyatini tahlili.....	<b>187</b>
<b>Bo'stonova N.A., Nematjonova R.D.</b> O'zbekistonda aholining daromadlari va iste'mol xarajatlarining biznes rivojlanishiga ta'siri.....	<b>192</b>
<b>Hamidova Sh.O.</b> Sanoat korxonalarida mehnatni tashkil etish va boshqarish samaradorligi tahlili.	<b>196</b>
<b>Abdullayeva Z.S.</b> Maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatining ijtimoiy va institutsional samaradorligi.	<b>199</b>
<b>Duvshatova N.K.</b> Hududlararo iqtisodiy nomutanosiblikni tartibga solishda investitsion yondashuvlarning samaradorligi.....	<b>203</b>
<b>Усманова А.Б.</b> Цифровая составляющая устойчивого развития региональной туристской системы (на примере Бухарской области).....	<b>207</b>
<b>Qidirniyazov A.Sh.</b> Uy-joy qurilishida kapital qo'yilmalar hajmi va yakuniy natijalar o'rtasidagi bog'liqlikni ekonometrik modellashtirish.....	<b>213</b>
<b>Dexkanova Sh.K.</b> Aylanma iqtisodiyotning barqaror rivojlanishdagi ro'li.....	<b>217</b>
<b>Gulimboyev S.I., Rejapov X.X.</b> Aholining farovonligini ta'minlashda ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning o'rni.....	<b>221</b>
<b>Mamatov B.S.</b> O'zbekistonning investitsion imkoniyatlari: asosiy tendensiya va natijalar.....	<b>226</b>
<b>Kamoldinova N.A.</b> Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish – ular bandligini ta'minlashning asosi.	<b>231</b>
<b>Aminboyev J.O.</b> Amortizatsiya hisobida foydali xizmat muddatini aniqlash: nazariy va amaliy yondashuvlar.....	<b>235</b>
<b>Maxramova N.Y.</b> Strategik menejmentda kadriyatlar zanjiri: raqobatbardoshlikni oshirishning konseptual asoslari.....	<b>241</b>
<b>Usmanova S.S.</b> Innovative development of the pharmaceutical industry.....	<b>245</b>
<b>Faxriddinova N.N.</b> Yashil tadbirkorlik va uning iqtisodiyotdagi o'rni.....	<b>250</b>
<b>Захирова Г.</b> Тиббий туризм хизматлари бозори ривожланишининг хориж тажрибаси.....	<b>254</b>
<b>Абдуллоев А.Ж.</b> Барқарор ривожланиш стратегияси асосида минтақавий саноатлашувни амалга оширишнинг хорижий мамлакатлар амалиёти.....	<b>258</b>
<b>Sharapova N.K.</b> Hududlarni barqaror rivojlantirish dasturlarini xalqaro standartlar tizimiga moslashtirish imkoniyatlari.....	<b>264</b>
<b>Rahmatullayeva D.O.</b> Demografik omillar va bandlik samaradorligi o'rtasidagi munosabatlar..	<b>272</b>

**QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARINING ISHLAB CHIQRISH  
HAJMINI BAHOLASH USULLARI**

**МЕТОДЫ ОЦЕНКИ ОБЪЕМА ПРОИЗВОДСТВА ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНОЙ  
МАТЕРИАЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

**METHODS FOR ASSESSING THE PRODUCTION VOLUME OF CONSTRUCTION  
MATERIALS INDUSTRY ENTERPRISES**

**Toshpulatov Asronbek Mutalibovich**

Andijon davlat universiteti bosh muhandisi, mustaqil tadqiqotchi

**Annotatsiya**

Maqolada qurilish materiallari sanoati korxonalarining ishlab chiqarish hajmini baholash usullari, ishlab chiqarish jarayonlari ketma ketligi, ularning nazariy dastaklar, jumladan, qurilish materiallari sanoati korxonalarida iqtisodiy ko‘rsatkichlarning baholash masalalari ham yoritib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar.** Qurilish materiallari sanoati, ishlab chiqarish hajmi, foydalilik darajasini aniqlash, qurilish bozori sotuv va material hajmi, bozorga kirish va chiqish, xomashyo resurslari importi, reklama xarajatlari va boshqalar.

В статье рассматриваются методы производства строительных материалов, последовательность производственных процессов, теоретическая основа и экономические процессы в производстве строительных материалов.

**Ключевые слова.** Строительное производство, объем производства, качество полезной продукции, объемы продаж и материалов на строительном рынке, вход и выход с рынка, импорт сырья, рекламная продукция и др.

This article examines construction materials production methods, the sequence of production processes, the theoretical basis, and economic processes in construction materials production.

**Keywords:** Construction production, production volume, quality of useful products, sales volumes and materials in the construction market, market entry and exit, raw material imports, advertising materials, etc.

Hozirgi bosqichda sanoat qurilish korxonalarining barqaror va samarali rivojlanishi, avvalo, ishlab chiqarish hajmini oshirish va uning barqaror o‘shirish sur‘atlarini ta‘minlash bilan bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, ishlab chiqarish jarayoniga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarni chuqur tahlil qilish va ularning mahsulot hajmiga ta‘sir darajasini aniqlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu yo‘nalishda muayyan ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, ishlab chiqarish hajmiga ta‘sir etuvchi omillar tarkibi, ularning o‘zaro bog‘liqligi va ta‘sir ko‘lami yetarlicha tizimlashtirilmagan, shuningdek, aniq tasnif asosida to‘liq shakllantirilmagan. Qurilish sanoati milliy iqtisodiyotda muhim o‘rin egallab, yaratilayotgan yalpi mahsulot hajmi va bajarilayotgan qurilish-montaj ishlari ko‘lami bilan ajralib turadi. Ushbu tarmoqda ishlab chiqarish jarayonlari uzoq davrni qamrab olishi, bir nechta bosqichlarda amalga oshirilishi va katta hajmdagi moddiy-texnik resurslarni talab qilishi bilan boshqa sohalardan farq qiladi. Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi, mehnat unumdorligi, texnika va texnologiyalarning zamonaviyligi qurilish mahsuloti hajmini belgilab beruvchi asosiy omillar hisoblanadi.

SH.K. Kurbaniyazov tomonidan “Qurilish materiallari sanoatida korporativ boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini joriy etish samaradorligi” mavzusida o‘z tadqiqotini olib borgan. Uning fikricha, korporativ boshqaruv samaradorligi keng mazmunli bo‘lib, ishlab chiqarishni

boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi samaradorligini umumiy holda tavsiflagan. Korporativ boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi samaradorligi mezon va ko‘rsatkichlarini to‘g‘ri hisob-kitob qilishni hamda korporativ boshqaruvni takomillashtirib borish asoslangan. Muallif asosan “tadqiqotida qurilish materiallari sanoatida korporativ boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy strategiyasini o‘zgartirish uchun aniq yo‘lni tanlab olish zarurligini hisobga olib, ular quyidagilarda bo‘lishini asoslagan: korxonalarining tashkiliy tuzilishini loyihaviy boshqaruv asosida optimallashtirish yoki takomillashtirib borish; zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etish orqali yangi mahsulotlar assortimentini ko‘paytirishga qaratilgan investitsion loyihalarning bajarilishini ta‘minlash; iqtisodiy samarasiz korxonalarining ishlab chiqarish yo‘nalishlarini diversifikatsiyalash asosida takomillashtirish; biznes-servis xizmatlarini yangi ishlab chiqarish korxonalarining rivojlanish darajasini e‘tiborga olgan holda takomillashtirish; tejamkor qurilish ishlab chiqarish (lean construction) tizimini joriy qilish va boshqalar”[3; 4].

S.S.Salomova o‘zining tadqiqot ishida “...korxonalar faoliyatiga intellektual platforma orqali raqamli texnologiyalar joriy etishning ta‘sirini vaqt, unga kiritilgan investitsiya, boshqaruv va boshqa xarajatlarni kamaytirish kabi omillar asosida o‘lchash usulini ishlab chiqqan bo‘lib, u ko‘p jihatdan, intellektual platforma asosida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari biznesini rivojlanish jarayonlarini o‘rgangan. AKTning korxonalar faoliyatiga ta‘siri va iqtisodiy samaradorligini bir qator olimlar tomonidan tadqiq qilingan usulini rivojlantirgan:

$$S_v = \sum_{i=1}^n \varphi_{iv} * s_{iv} \quad (1)$$

bu yerda  $S_B -v$  vaqtdagi korxonaning umumiy samaradorligi;  $\varphi_{iv}$  – i korxonaning v vaqtidagi raqamli texnologiya ulushi;  $s_{iv}$  - i korxonaning v vaqtdagi samaradorlik ko‘rsatkichi, n-AKT qo‘llashda korxonalar tarmoqlarining (sex, bo‘lim) soni[7].

M.R.Xudoykulov tomonidan “to‘qimachilik sanoati aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv mexanizmi samaradorligini baholashning takomillashtirish usuli ishlab chiqilgan. Ushbu usulga ko‘ra, mulkdor qiziqishlarini himoya qilish darajasi integral ko‘rsatkichini umumiy ko‘rinishi:

$$K_{ikt} = +(-) * K_1 + (-) * K_2 + (-) * K_3 + (-)K_4 \quad (2)$$

Bu yerda,  $K_{IKT}$ – mulkdor qiziqishlarini himoya qilish darajasi integral ko‘rsatkichi;  $K_1$ – joriy tushumlarda mulkdorlar qiziqishlarini himoya qilish samaradorligi ko‘rsatkichi;  $K_2$ –istiqboldagi tushumlarda mulkdorlar qiziqishlarni himoya qilish samaradorligini ko‘rsatkichi;  $K_3$ –korporativ munosabatlar boshqa ishtirokchilari bilan taqqoslashdagi mulkdor qiziqishlarini himoya qilish samaradorligi ko‘rsatkichi;  $K_4$ –mulkdor qiziqishlarini himoya qilish samaradorligining boshqa aksiyadorlik jamiyat mulkdori qiziqishlari bilan solishtirish natijasi ko‘rsatkichi [9]. Bu integral ko‘rsatkichdan qurilish korxonalarida boshqaruv samaradorligini baholashdan foydalanish mumkindir.

M.M.Muxtarov o‘zining tadqiqot ishida “Sanoat korxonalarida mahsulotlari iste‘moliga ta‘sir etuvchi omilarni o‘rganish asosida ko‘p omili regressiya funksiyasidan foydalanishni talab etgan[5]:

$$MI = f(YXMs, SMIs, QMKs, Ni, IShd, Ist) \quad (3)$$

bunda: MI – mahsulot iste‘moli; YXMs — YaXMning o‘sish sur‘ati; SMIs — sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘sish sur‘ati; QMKs — qisqa muddatli kredit stavkasi; Ni — narxlar indeksi; IShd — ish haqi shaklidagi daromadi; Ist — iste‘molchilar sonini o‘zgarishi. Bu yerda muallif asosan mahsulot iste‘moliga alohida ahamiyat bergan.

Qurilish sanoati korxonalarida mahsulot diversifikatsiyasini baholashda Y.A.Kolmak Teyla indeksidan foydalanishni taqdim etgan[2]. Shuningdek, ushbu berilgan modeldan qurilish sanoati korxonalarida materiallar assortimentini ko‘paytirishda foydalanish mumkin:

$$T = \sum_{r=1}^R \left( \frac{Yr}{y} * Ln \frac{Yr}{Y/R} \right) \quad (4)$$

Bu yerda,  $Yr$ - r -mintaqaning o‘zgaruvchan qiymati,  $Y$ -bir xil o‘zgaruvchilarning qiymati,  $R$ -mintaqalar soni.

Taqdim etilgan metodikalar qurilish sanoati korxonalarida faoliyatida foydalanish uchun samarali bo‘lsada, korxonalarini samaradorligini to‘la baholay olmaydi, biroq umumiy diversifikatsiyasi ko‘yeffitsentini baholashda foydalanish mumkin. Fikrimizcha iqtisodiy samaradorlik nuqtai-

nazaridan diversifikatsiyaga yondashilganda mazkur ko‘rsatkichda sotilgan mahsulotlar hajmi o‘zgarishi asosida aniqlash ijobiy natija beradi.

B.YE.Iskandarovning ilmiy tadqiqot “O‘zbekiston qurilish sanoati korxonalarida barqaror innovatsion rivojlanishni ta‘minlash” mavzusida bo‘lib, u qurilish korxonalarini innovatsion salohiyatini aniqlash bo‘yicha: korxonaning ilmiy-tadqiqot, texnologik, innovatsiyalar natijaviyligi hamda innovatsiyalarning turmush darajasiga ta‘siri salohiyati ko‘rsatkichlarini ishlab chiqqan[1]. Muallif asosan qurilish sanoati korxonalarida barqaror innovatsion rivojlanish darajasini baholashda ilmiy-tadqiqot natijalari, texnologik ko‘rsatkich, innovatsiyalarni natijaviyligi va rentabellik ko‘rsatkichlarini baholagan.

Ishlab chiqilgan model orqali qurilish sanoati korxonalarini uchun menejeri mavjud bo‘lgan bozor hajmini baholash talab etiladi. Shu sababli barcha omillardan samarali foydalanish hisobiga bozor sig‘imi, ya‘ni korxonadan ishlab chiqarilgan va sotiladigan qurilish tovarlarni hudud bozoridagi hajmini aniqlaydi. Ushbu ko‘rsatkichni dinamikini baholashda, mintaqaviy bozorning konyunkturasini aniqlashga hamda keyingi rivojlanishini prognozlashga va ma‘lum bir raqabotdosh korxonaning unga nisbatan faoliyatini baholashni bildiradi[6].

Shuning uchun qurilish materiallarini ishlab chiqaruvchi korxonalarini iqtisodiy samaradorligini baholashda asosan uning ishlab chiqarish materiallari hajmini regressiya funksiya tenglamasi tuzilgan:

$$QICHx = f(QSICHX, QKXHq, QMICHIXi, QKBSq, QSTHt) \quad (5)$$

Bu yerda: **QSICHX** – qurilish sanoatining ishlab chiqarish hajmi;

**QKXHq**- qurilish korxonalaridagi xizmatlar hajmi;

**QMICHIXi**- qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalariga jalb etilgan investitsiyalar hajmi;

**QKBSq**- qurilish korxonalarida band bo‘lganlar soni;

**QSTHt**- qurilish korxonalarida hisoblangan soliq to‘lovlari hajmi.

Qurilish sanoati korxonasini bozordagi o‘rni, ulushi kabi ko‘rsatkich yordamida baholanadi. Bu ichki bozorda sotilgan tovarlarning umumiy hajmida ma‘lum bir korxonadan mahsulotining ulushi mavjud. Ushbu ko‘rsatkichning rivojlanishi korxonadan iqtisodiyotini bozordagi o‘zgarishlarga nisbatan qanchalik samarali rivojlanganligini aniqlash imkonini beradi. Korxonaning bozor ulushi tovar aylanmasining umumiy bozordagi sotuv hajmiga nisbati aniqlanadi va tahlil qilinadi.

Bugungi kunda iqtisodiy tarmoqlarda, ayniqsa, qayta ishlash, pardoqlash va qurilish sanoatida qurilish mayyeri importi ulushi sezilarli darajada ko‘paydi va natijada ko‘pchilik korxonalar an‘anaviy va eng sig‘imli savdo bozorlarida o‘z ulushini yo‘qotdi. Shu sababli qurilish bozorlarida milliy qurilish korxonalarini o‘z ulushini pasayishi sezilmoqda. Jumladan, qurilish sanoatida ham import tovarlarni ulushi ko‘pishini respublika iqtisodiyotiga ham ta‘sir ko‘rsatadi. Chunki import xarid samaradorligini ortishi mamlakatda qurilish materiallariga bo‘lgan talabni qondirishi bo‘lsa, narxning o‘shishiga, inflyatsiya darajasini ko‘tarilishiga ham olib keladi. Shuning uchun bozor omillarini qurilish sanoati korxonalarini iqtisodiy samaradorligiga ta‘sir qilishda narxlar tebranishi yetakchi o‘rinni egallaydi. Shu sababli narx omilini samaradorlikka ta‘sirini baholash uchun umumiy narxlar darajasi ko‘rsatkichidan foydalanish mumkin. Bozor iqtisodiyoti sharoitida inflyatsiya obyektiv jarayon bo‘lib, uning korxonadan iqtisodiy samaradorlik darajasiga bevosita ta‘siri boshqa bilvosita omillar bilan birgalikda baholanishi mumkin. Qurilish sanoati korxonalarini samaradorligiga ta‘sirini o‘lchash uchun korrelyatsiya-regressiya tahlil usullaridan foydalaniladi. Chunki ular o‘rtasidagi munosabatlarni bog‘liqligi to‘liq emas va riskidir.

Qurilish korxonalarini strategik rejalashtirish va korxonaning bozordagi real holatini baholashda qurilish bozoridagi talab va taklifning ishlab chiqarish hajmiga ta‘sirini modellashtirish va prognoz natijalarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. “Uslubiy jihatdan o‘rta va uzoq muddatli prognozlashda bozor rivojlanishini xususiy va tasodifiy omillar hisobga olinmaydi. Shu sababli prognoz davri qancha uzoq bo‘lsa, prognoz shunchalik umumlashtiriladi va bozor konyunkturasiga ta‘sir etuvchi omillar uzoq muddatli, muhim bozor tendensiyalarini shakllantiradigan omillarga o‘z o‘rnini bo‘shatadi”[10]. Qurilish sanoati korxonasi asosan tashqi va bozor muhiti samaradorligini

baholash orqali ishlab chiqarish hajmini shakllantiradi. Ishlab chiqarish hajmini baholashda tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va texnologik ko‘rsatkichlardan keng foydalaniladi.

Xulosa sifatida quyidagilarni keltirib o‘tamiz:

- qurilish materiallari sanoati korxonalarida ishlab chiqarish hajmini barqaror oshirish va tarmoq miqyosida o‘shirishni ta‘minlashning asosiy maqsadi — ishlab chiqarish jarayonlarini tizimli ravishda muvofiqlashtirishdir. Bunda korxonaning ichki resurslari, ishlab chiqarish quvvatlari va xom ashyo ta‘minoti o‘zaro bog‘liq holda ishlashi zarur;

- ishlab chiqarish jarayonlarini samarali tashkil etishda bir qator tamoyillar amal qilishi lozim: ishlab chiqarish quvvatlaridan maksimal foydalanish, mehnat unumdorligini oshirish, texnologik jarayonlarni optimallashtirish va resurslarni tejash;

- so‘nggi yillarda mamlakatimiz qurilish materiallari sanoati korxonalarida ishlab chiqarish hajmini oshirish orqali nafaqat korxonalar samaradorligini yaxshilash, balki aholiga sifatli va raqobatbardosh mahsulotlarni yetkazib berish imkoniyatlarini kengaytirish zarurati ortib bormoqda;

- ishlab chiqarish hajmini shakllantiruvchi tashkiliy-iqtisodiy jarayonlarni baholash, tartibga solish va ularni rivojlantirish yo‘nalishlarini aniqlash korxonaning uzoq muddatli barqarorligini ta‘minlaydi;

- qurilish materiallari sanoati korxonalarining doimiy rivojlanishiga ta‘sir ko‘rsatuvchi iqtisodiy mexanizmlarni aniqlash va unga baho berish — ishlab chiqarish hajmini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash va resurslardan samarali foydalanish yo‘lida muhim vosita hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Искандаров Э.Б. “Ўзбекистон қурилиш саноати корхоналарида барқарор инновацион ривожланишни таъминлаш”. и.ф.ф.д., автореф. (PhD) 08.00.03-Саноат иқтисодиёти, - Тошкент. 2022, -13 б.
2. Коломак Е.А. Межрегиональное неравенство в России: экономический и социальный аспекты // Пространственная экономика. 2010. № 1. С. 132–150.
3. Курбаниязов Ш.К. “Қурилиш материаллари саноатида корпоратив бошқарувнинг ташкилий-иқтисодий механизми жорий этиш самарадорлиги”. и.ф.ф.д., автореф. (PhD) 08.00.13-Менежмент, -Тошкент. 2018, -19 б.
4. Матризаева Д.Р. Саноат корхоналарининг иқтисодий самарадорлигини бошқаришни такомиллаштириш («Ўзсаноатқурилишматериаллари» уюшмаси мисолида): и.ф.ф.д. (PhD) автореф. 08.00.13, -Тошкент, 2021, 19 б.
5. Мухторов М.М. “Саноат корхоналари иқтисодий самарадорлигини ошириш йўллари (Андижон вилояти енгил саноат корхоналари мисолида)”. и.ф.ф.д., автореф. (PhD) 08.00.03-Саноат иқтисодиёти, -Тошкент. 2023, -16 б.
6. Николаев Ю. Н. Экономическая оценка условия безубыточной и эффективной деятельности предприятия // Бизнес. Образование. Право. Вестник Волгоградского института бизнеса. 2010. № 1 (11). С. 91—98.
7. Саломова С.С. “Саноат корхоналарининг интеллектуал платформасида самарали ривожлантириш (“Охангарон цемент” АЖ мисолида)” и.ф.ф.д., автореф. (PhD) 08.00.03-Саноат иқтисодиёти, -Тошкент. 2021, -24 б.
8. Хан Р.С., Коневец Д.А. Управление эффективностью деятельности строительного предприятия на основе маркетингового подхода. ISSN 2409-7616, ЦИТИСЭ №2 (28) 2021, -462 с.
9. Худойкулов М.Р. “Тўқимачилик тармоғи акциядорлик жамиятларида бошқариш механизми самарадорлигини ошириш”. и.ф.ф.д., автореф. (PhD) 08.00.13-Менежмент, -Тошкент. 2018, -19 б.
10. Шамрай Л. В., Горбунова Е. Г. Оценка результативности управленческих решений по критериям экономической эффективности. // BUSINESS. EDUCATION. LAW. BULLETIN OF VOLGOGRAD BUSINESS INSTITUTE, 2014, № 2 (27). –С. 181-186. Subscription indices – 38683, P8683.